

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2021 йил махсус сон



2020 – 2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida Toshkent sh.,

2020 yil 14 dekabr, 781-son

2.Актуальные проблемы развития ребенка. Материалы II Международной научно-практической конференции.

3.Справочник «Руководителя дошкольного образовательного учреждения» - Т.2006

4.Фридман Дж. «Как развить талант ребёнка от рождения» М.1996

5.Паскаль. Методическое пособие для преподавателей начальной школы и воспитателей детских садов по курсу «Развития творчества»

6.www.ziyonet.uz.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARGA ZAMONAVIY KASBLAR HAQIDA TUSHUNCHА BERISH VA QIZIQTITRISH OMILLARI.

Muxitdinova Jamilaxon Ruslanovna – NamDU, kata o'qituvchi

Turg'unpulatova Muxtasar – NamDU, talaba

***Annotatsiya:** Maqolada yangi kashfiyotlar yaratilayotganligi, yanada ilg'or qurilmalar va uskunalar ishlab chiqilganligi, ijtimoiy va siyosiy tizim o'zgarib borayotganligi tufayli barcha o'zgarishlar va innovatsiyalar mehnat bozoriga ta'sir qilayotganligi haqida ma'lumot keltirilgan. Bundan tashqari, jamiyatimizning barcha sohalariga zamonga mos holda kirib kelgan yangi kasblar haqida tushuncha berilgan.*

***Kalit so'zlar:** kouch, tyutor, fasilitator, dasturchi, marketolog, IT-tibbiyot, BIO-muhandis, menejer, dronlar operatori.*

ОЗНАКОМЛЕНИЕ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ И ОБУЧЕНИЕ ОЧЕНИКОВ НОВЫМ СОВРЕМЕННЫМ ПРОФЕССИЯМ

Мухитдинова Жамилахон Руслановна – старший преподаватель, НамДУ

Тургунгулатова Мухтасар – студентка, НамДУ

***Аннотация:** Современный мир постоянно претерпевает различные изменения, которые затрагивают все сферы общества. Это верно и для современного рынка труда. Современный рынок профессий должен динамически меняться и подстраиваться под сформировавшиеся нужды. Каждый год появляются новые профессии, которые требуют от людей получения новых знаний и навыков их применения. Это продиктовано необходимостью соответствовать тому уровню, который необходим для выполнения данной работы. Именно поэтому на уроки Технологии помогают студентам получить профессиональные знания и навыки в выбранной ими области, обеспечивая понимание профессий.*

***Ключевые слова:** коуч, тьютор, фасilitатор, программист, маркетолог, ИТ-медицина, ВІО-инженер, менеджер, оператор дрона.*

Zamonaviy dunyo jamiyatning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan turli xil o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Xuddi shu narsa zamonaviy mehnat bozoriga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Tabiiyki, zamonaviy kasblar bozori dinamik ravishda o'zgarishi va paydo bo'ladigan ehtiyojlarga moslashishi kerak. Yildan yilga insonlardan yangi bilim va



ко'никмаларни qo'llashda talab qiladigan yangi kasblar paydo bo'lmoqda. Bu esa ushbu ishni bajarish uchun zarur bo'lgan darajada tayorgarlikni talab etadi.

Kasbning zamonaviy jamiyatdagi roli sifat jihatidan o'zgardi, endi u nafaqat barqaror daromad manbai, balki butun dunyoning rivojlanish tendentsiyasidir. Yangi kashfiyotlar yaratilmoqda, yanada ilg'or qurilmalar va uskunalar ishlab chiqilmoqda, ijtimoiy va siyosiy tizim o'zgarib bormoqda. Bu barcha o'zgarishlar va innovatsiyalar mehnat bozoriga ta'sir qiladi va unga o'z shartlarini belgilaydi. Shu sababli, bunday o'zgarishlardan so'ng, ish faolit turiga va nomzodga qo'yiladigan talablar ham o'zgarmoqda. Endi, ishga kirayotgan nomzodning kasbiy mahoratini tavsiflashda ko'pincha xushmuomalalik, stressga chidamlilik yoki analitik fikrlash kabi fazilatlariga e'tibor berilayotganligini ko'rish mumkin.

O'zgarishlar pedagogika sohaga ham ta'sir ko'rsatdi. Zamona viy jamiyatda pedagogik kasb an'anaviy ravishda o'qituvchi, ma'ruzachi, tarbiyachilarni o'z ichiga oladi. Ammo zamona viy jamiyatning yangi kasblaridan - tyutor, kouch va fasilitatorlar paydo bo'ldi.

Mehnat bozori gumanitar kasblarga haddan tashqari to'yinganlik va texnik kasblarga esa keskin yetishmovchilik kuzatilmoqda. Bu, ayniqla, bugungi kunda nufuzli hisoblanmaydigan kasblar orasida uchrab kelinmoqda. Ishchilar orasida zarur zamona viy kasblar - bu professional payvandchilar, tokarlar, chilangar, montajchilar, frezerlar, ChPU dastgohlari operatorlari.

Shuning uchun ham Texnologiya o'quv mashg'ulotlarining muhim vazifasi talabalarning mehnatga ijodiy munosabatini shakllantirish hamda turli kasblar, shu qatorda hayotimizga yangi kirib kelgan zamona viy kasblar haqida tushuncha berish va dars mashg'ulotlarida ularda bilim va ko'nikmalar shakllantirish. Quyida turli hail zamona viy kasblar to'g'risida atroficha ma'lumot berib o'tildi

Statistik ma'lumotlarga ko'ra gumanitar sohada ta'lif olgan yosh mutaxassislarning 80% dan ortig'i o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylasha olmayotganligi namoyon bo'lmoqda. Hozirgi kunda esa kadrlarga eng zarur sohalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- IT;
- Medetsina;
- Og'ir sanoat;
- Qazib olish sanoati;
- Tijorat faoliyati va h.k.

Davlat muassasalari, masalan, ta'lif va ijtimoiy xizmatlar ham yangi kadrlar yetishmovchiligini boshdan kechirmoqda. Ammo, agar o'qituvchilar va ijtimoiy xodimlarning aksariyati past maosh sharoitida ishlashga tayyor bo'lmasa, malakali muhandis kadrlar esa soni keskin past desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari boshqaruv inqirozi ham kuzatilmoqda - ko'plab yirik korporatsiyalar shoshilinch biznes muammolarini hal qilish uchun konkurslar e'lon qilib, tajribasi bo'limgan kadrlarni ham hattoki rahbarlik lavozimlarga taklif etishmoqda.

Biroq, hozirgi kunda sohalar bo'yicha kuzatilayotgan tendentsiyalar bo'lajak kasbini tanlashda aynan shu sohani tanlashga majbur bo'lish kerakligini anglatmaydi, ya'ni, agar gumanitar sohaga mansub kasblari sizga yaqin bo'lsa, siz majburan fizika yoki muhandis sohalardagi kasblar bilan o'zingizni bog'lashga hech nima majbur eta olmaslikni yaxshi anglash kerak.

Qiziqishlar doirangizda tegishli kasbni tanlash eng maqbul qarordir. Agar siz ona tiliga qiziqsangiz, filolog bo'lishingiz shart emas. Shunga o'xshash, lekin hozirda mehnat bozorida ko'proq talab qilinadigan kasbni tanlash kifoyadi - jurnalist, kopirayter va boshqalar.



Yodingizda bo'lsin, siz yomon ko'radigan ishda muvaffaqiyatga erishish juda qiyin, u qanchalik dolzarb va daromadli bo'lmasin.

Yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi har doim turli sohalarda yangi kasblarning paydo bo'lishiga olib keladi. Yaqin vaqtgacha faqat ilmiy-ommabop filmlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan mutaxassislarga talab yildan-yilga ortib bormoqda.

Dunyodagi zamonaviy kasblarni ko'rib chiqamiz. Sanoat davrida oldin mashhur bo'lgan kasblar o'rniaga asta-sekin boshqa yangi kirib kelgan kasblar o'rnnini bosib kelmoqda. Shu bilan birga, texnologiyaning rivojlanishi turli dastur va texnikalar bilan ishlay oladigan mutaxassislarni talab qiladi.

Xo'sh, so'nggi bir necha yil ichida mamlakatimizda yangi kasblardan qaysi biri paydo bo'ldi, qaysilari uzoq vaqtdan beri dolzarbligini yo'qotmaganligini ko'rib chiqish mumkin. Quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Dasturchi kasbi: axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli dasturchi kasbi mamlakatimizda eng ko'p talab qilinadigan va yuqori haq to'lanadigan kasblardan biri hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, dasturchi odatda mobil telefonda video o'yinlar, operatsion tizimlar yoki ilovalar uchun manba kodini yaratuvchi mutaxassisdir. Dasturchining vazifasi so'zlar va belgilardan iborat kodni ishlab chiqishdir. Hozirgi vaqtda yuzdan ortiq dasturlash tillari mavjud. Biroq kelajagini shu kasbga bag'ishlamoqchi bo'lgan odam ularning har biri bilan tanish bo'lishi shart emas.

Yuqori talab etilayotgan mutaxassis bo'lish uchun dasturlashda qo'llanilayotgan quyidagi eng mashhur tillarni bilish kifoyadir, bular JavaScript, C, C++, Python, PHP, Objective-C tillaridir. Tegishli dasturlash tilni tanlash esa mijoz tomonidan qo'yilgan vazifaga bevosita bog'liq bo'ladi. Masalan, mobil telefondagi ilovalar va o'yinlar Java tilida yozilish kerak bo'lsa, PHP va Python dasturlash tili esa ko'pincha onlayn-do'konlarni yaratish uchun ishlataladi.

Shuni aytib o'tish joizki, hozirgi kunda dasturlash bo'yicha uchta mutaxassisliklarni ajratish mumkin.

1. Amaliy dasturchilar. Ular dasturlar va ilovalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi: kompyuter o'yinlari, ofis xizmatlari, tezkor xabarchilar va boshqalar.
2. Tizimli dasturchilar. Operatsion tizimlarni ishlab chiqishadi, jumladan, taniqli Android va iOS kabi tizimlarni.
3. Web dasturchilar. Ularning asosiy vazifasi web sahifalarni qo'llab-quvvatlaydigan saytlar va dasturlarni yaratishdir.

Ushbu kasblar bo'yicha oliy ta'limda o'qib tegishli diplomga ega bo'lish mumkin. Bunda "Informatika va kompyuter injiniringi" yoki "Axborot xavfsizligi" kabi ikkita yo'nalishdan birini tanlash kerak bo'ladi. Bundan tashqari maxsus qayta tayyorlash kurslarida qatnashib, dasturlashni o'rganish mumkindir.

Yana bir yangi kirib kelgan mashxur kasblardan Marketolog kasbini ko'rib chiqamiz. Bozor iqtisodiyotining paydo bo'lishi asta-sekin yangi kasbning paydo bo'lishiga olib keldi. Marketolog - iste'mol bozorini o'rganuvchi shaxs hisoblanadi. Marketologning vazifasi esa bozorda paydo bo'lgan mahsulotni baholashdir. U xaridorlar orasida talabga ega bo'ladimi yoki yo'qligini taxmin qilishi kerak. Agar qaysidir mahsulotga talab yo'q bo'lsa, sababini o'rganadi va aniqlaydi. Bundan tashqari, marketing bo'yicha mutaxassis mijozga o'z mahsulotini ilgari surish yo'llarini taklif qilishi kerak bo'ladi, ya'ni, u kelajakda kompaniyaga foyda keltiradigan savdo tizimini qurishi kerak bo'ladi.



Marketolog quyidagi vazifalarni bajaradi:

- mavjud mahsulotga muhtoj bo'lgan maqsadli auditoriyani qidirish;
- raqobatchilarning harakatlarini baholash;
- xaridorlarning xohish-istiklarini diqqat bilan o'rganish;
- savdo tizimini qurish;
- u bilan bir jamoada ishlaydigan kopirayterlar, dizaynerlar va brend menejerlarining ishini nazorat qilishdir.

Marketolog bo'lishni o'rganish uchun siz uchta yo'nalishdan biriga e'tibor qaratishingiz kerak: "Iqtisodiyot", "Menejment" yoki "Sotsiologiya". Siz har qanday reklama kompaniyasida yoki marketing bo'limi mavjud korxonada marketolog sifatida ishga joylashishingiz mumkin.

Keyingi mashxur kasblardan Kiberhavfsizlik soha mutahasisi hisoblanib, u mehnat bozorida yaqinda paydo bo'lgan bo'lib, bir necha yil ichida dunyodagi eng ko'p talab qilinadigan o'nta kasbdan biriga aylandi. Har qanday kiberhujumning maqsadi kompyuter tizimi yoki tarmoqqa kirishga harakat qilishdir. Shundagina xakerlar bank kartasi, pasport ma'lumotlarini ko'rib chiqishi yoki "o'ta maxfiy" deb tasniflangan ma'lumotlarni o'g'irlashi mumkin. Ayni paytda kiberhujumlar har qanday korxona va hatto butun mamlakat uchun eng xavfli tahdidlardan biri hisoblanadi. Bu ko'p jihatdan dasturiy ta'minotni ishlab chiqishning yuqori darajasi bilan bog'liq. Agar ilgari dasturchilar dasturni noldan boshlab ishlab chiqqa bo'lsa, hozirda esa juda ko'p tayyor kichik dasturlar mavjud. Masalan, shunday dasturli kutubxonalaridan biriga kirish huquqiga ega bo'lgan xaker darhol minglab Internet-resurslarning ma'lumotlariga ega bo'lishi mumkin.

Kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassis vazifasiga quyidagilar kiradi:

- axborotni himoya qilishning maxsus tizimini ishlab chiqish;
- axborotning chiqib ketishining barcha mumkin bo'lgan xatarlarini tahlil qilish;
- kodning muhim qismlarini yozish.

Boshqacha aytganda, kompaniyada ushbu lavozimni egallagan shaxs yuqori darajadagi dasturchi hisoblanadi. U bozorda paydo bo'ladigan yangi texnologiyalarning salbiy tomonlarini yaxshi bilishi kerak.

Keyingi mashxur kasblardan Interfeys Dizayneri bo'lib, u sayt interfeysi ishlab chiquvchi mutaxassisini hisoblanadi. U Internet-saytda oson navigatsiyani ta'minlashi kerakki, saytdan foydalanayotgan tashrifchi cheksiz havolalar orasida adashmasligi kerak. Bo'lajak kasbini ushbu mehnat faoliyati bilan bog'lashga qaror qilgan inson, birinchi navbatda, yaxshi tahliliy fikrga ega bo'lishi kerak, chunki mijozning mobil ilovadan yoki web-saytdan foydalanishni xohlashi unga bog'liq bo'ladi.

Ushbu sohada yaxshi mutaxassisning vazifalari quyidagicha:

- har doim bo'lajak mijozlarning harakatlarini oldindan bilish;
- moslashtirilgan skriptlarni ishlab chiqish;
- tashviqot materiallarini varaqda taqdim eta olish;
- yaxshi dizaynni omadsizdan farqlash;
- tayyor saytni sinovdan o'tkazish;
- infografika yarata olish;
- internet-resurs yaratish texnologiyasini bilishdir.

Ushbu kasb, afsuski, O'zbekiston bozorida hali keng talabga ega emas. Ko'pincha interfeys dizaynerining vazifalari dasturchi yoki web-dizayner tomonidan amalga oshiriladi. Shu bois mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ushbu mutaxassislik bo'yicha o'qishni



xohlovchilar alohida dasturlar topa olmaydi. Interfeys dizayneri bo'lish uchun dasturchi yoki web-dizayner kasbini egallash kerak bo'ladi.

IT-Tibbiyot soha ham yangi kirib kelayotgan soha hisoblanib, IT tibbiyotining paydo bo'lishiga birinchi navbatda sayyoramiz aholisining ko'payishi sabab bo'ldi. Yana bir sabab uchinchi dunyo mamlakatlarida malakali tibbiy yordamning yo'qligi edi. O'rtacha umr ko'rish davomiy ligining oshishi, tabiiyki, keksa aholi orasida surunkali kasalliklarning ko'payishiga olib keldi. Shu sababli, mamlakatimizdagi barcha klinikalarda, asosan, nafaqaxo'rlardan iborat idoralar oldida uzun navbatlarni kuzatishimiz mumkin.

Shifokorlarning yelkasiga katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash kabi qiyin vazifa tushdi. Shu sababli, aksariyat shifokorlar zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga intilmoqda. IT shifokorining vazifasi esa tibbiy ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishdir. Bundan tashqari, u zamonaviy tibbiy asboblar uchun dasturiy ta'minot yaratadi. Yaqin kelajakda odamlar o'z sog'lig'i haqida onlayn shikoyat qilishlari mumkin bo'ladi va bir necha soniya ichida onlayn tibbiy xizmat murojaat qilgan bemorga muolajani belgilab beradi.

IT shifokori bo'lishga qaror qilgan kishi dasturlash sohasida asosiy bilimlarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Uning kundalik vazifalariga maxsus dasturlarni ishlab chiqish kiradi. Bundan tashqari to'g'ri tashxis qo'yish uchun u tibbiy ma'lumotga ham ega bo'lishi kerak.

Yaqinda dunyo bozorida yangi paydo bo'lgan kasblaridan **SEO-mutahasis kasbidir**. Har qanday SEO mutaxassisining asosiy vazifasi to'g'ri harakatlar ketma-ketligini ishlab chiqishdir, buning natijasida sayt qidiruv tizimining yuqori qismida bo'lishi mumkin. Misol uchun, onlayn xokkey uskunalari do'konining egasi uchun uning web-sayti har doim Yandex-ning yuqori qatorida bo'lishi muhimdir. Buni amalga oshirish uchun u "xokkey jihozlarini sotib olish" va "xokkey uskunalari narxi" so'rovlari uchun do'konni targ'ib qiluvchi shaxsga murojaat qilishi kerak.

Sayt egalarining asosiy vazifasi ko'plab Internet foydalanuvchilari orasida yuqori reytingga ega bo'lishdir. Shuning uchun, yaxshi SEO mutaxassisini hech qachon ishsiz qolmaydi. Bundan tashqari, bu daromadli kasb hisoblanadi, chunki ko'p buyurtmalar tez daromadga olib keladi. Ushbu sohada ishslashni istagan har bir kishi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

- ingliz tilini yaxshi bilish;
- HTML, CSS dasturlash tillarini bilish;
- saytri boshqarish tizimi bilan tanishish;
- katta hajmdagi axborotlar bilan ishlay olish;
- qidiruv tizimlarining xususiyatlarini bilish va h.k.

Ayni paytda ko'p universitetlar to'liq SEO mutaxassisini tayyorlay olmaydi. Shu bois ushbu kasbni egallashni xohlovchilarga maxsus kurslarda qatnashish tavsiya etiladi.

BIO-Muhandis - bu tibbiyot sohasida samarali usullarni ishlab chiqadigan mutaxassis hisoblanadi. Ushbu lavozimdagi odamlar tirik organizmlar bilan ishlaydi va o'z muammolarini hal qilishda eng yangi texnologiyalarni qo'llaydi. Ular fanlararo bilimlar asosida tibbiy asboblar yaratishda bevosa ishtiroy etadilar.

Ushbu soha mutaxassislari muhandislik va tibbiyot sohasidagi allaqachon mavjud bilimlarni chuqurlashtirishni asosiy maqsad deb bilishadi. Biomuhandislar inson salomatligini yaxshilash masalalariga texnik yondashishmoqda. Ushbu ilmiy sohaning asosiy yutuqlaridan biri bu sun'iy bo'g'lnlarni yaratish hisoblanadi. Shuningdek, bioinjeneriya tufayli kompyuterli rezonans tomografiya paydo bo'ldi. Shuni aytib o'tish joizki, biomuhandislar bog'dorchilik sohalarda



ham o'z bilimlarini va yutuqlarini qo'llab kelishmoqda va bog'dorchilik mahsulotlarinig yangi navlarni yaratishmoqda. Biomuhandis kasbiga taaluqli asosiy jihatlar quyudagicha:

- analitik aql;
- tabiatshunoslik ishlariga muhabbat.

Masalan, Rossiyada bioinjeneriya sohasidagi mutaxassislarini Moskva davlat universiteti, Rossiya xalqlar do'stligi universiteti va boshqa bir qator taniqli universitetlar tayyorlaydi. Ushbu kasbni egallash istagida bo'lgan abituriyentlar "Biologiya" yo'nalishini tanlaydilar.

Navbatdagagi Menejer kasbi dunyo mehnat bozorida o'ttiz yildan ortiq vaqtidan beri mavjud. Menejerning so'zma-so'z tarjimasi "rahbar" yoki "boshqaruvchi" degan ma'noni anglatadi. Yirik korxona va tashkilotlarda ishlaydigan menejer vazifasiga xodimlarni boshqarish vazifasi yuklatiladi.

Hozirda ko'plab xalq xo'jaligi va iqtisodiyot sohalarida menejer mutaxassislariga talab katta:

- qurilish va ishlab chiqarish sohalari;
- og'ir va yengil sanoat sohalari;
- transport sohasi;
- moliyaviy sohalar.

Menejering vazifalariga quyidagilar kiradi:

- xodimlar faoliyatini rejalashtirish;
- tijorat muammolarini hal qilish;
- korxona xodimlarining faoliyatini nazorat qilish;
- xodimlarni rag'batlantirish tizimini ta'minlash;
- savdo-sotiqni tashkillashtirish.

Ish vazifalariga ko'ra menejerlar bir necha darajalarga bo'linadi: quyi, o'rta va yuqori. Quyi darajadagi bo'g'im mutaxassislari kichik bir guruh xodimlarni boshqaradilar va berilgan vazifani bajarish uchun xodimlar bilan birga ishlaydilar. O'rta darajadagi bo'g'im menejerlari savdo va reklamani nazorat qiladilar. Nihoyat, yuqori darajadagi menejerlar odatda tijorat direktori lavozimini egallashadi. Menejer kasbiga mamlakatdagi ko'plab yirik universitetlarda tayyorlanadi. Abituriyentlar odatda "Menejment" yoki "Xalqaro menejment" mutaxassisliklarini tanlaydilar.

Kosmetolog kasbi - bu yuz va tana terisini parvarish qiladigan, ularni davolaydigan va tiklaydigan go'zallik sohasi mutaxassis. Odatda bu kasb ozodalik va poklikni qadrlaydigan insonlar uchun mos keladi. Spa va go'zallik salonlarida kosmetolog bo'lib ishlash uchun oliv ma'lumotga ega bo'lish shart emas. Biroq, yaxshi mutaxassis bo'lish uchun kamida tibbiyot kolleji yoki texnikumi diplomiga ega bo'lishi talab etadi. Kosmetologlar faqat teri muammolari bilan shug'ullanadi deb o'yash noto'g'ri. Ular inson terisidagi o'zgarishlarning asosiy sababini aniqlaydilar va ularni bartaraf etish uchun keng qamrovli muolajalarni belgilaydilar. Kosmetolog quyidagi muolajalarni amalga oshiradi:

- teridagi toshma va yaralarni davolaydi;
- so'gal va xollarni olib tashlaydi;
- teridagi rivojlanish anomaliyalarini bartaraf qiladi;
- yuz terisida yoshga bog'liq o'zgarishlarga qarshi doimiy kurash olib boradi.

Tibbiyot kollejlari tomonidan muntazam kosmetolog kurslar tashkil etililib keladi, aynan shu kurslarda kosmetologiya sirlarini o'rganish mumkin. Tibbiyot oliyohlarda bo'lajak



kosmetologlar "Umumiy tibbiyot" yo'nalishini tanlaydilar. Asosiy kursni tugatgandan so'ng ular "Dermatovenerologiya" mutaxassisligi bo'yicha ordinaturada o'qishga kiradilar.

Dronlar Operatori. Uchuvchisiz uchish apparatlari zamonaviy ixtirolardan biri. Mamlakatimizda dron operatori kabi kasb 2017 yilda dolzarb bo'lib qoldi. Hozirgi kunda dunyoda dronlardan keng foydalanilmoqda. Biroq, hali ham uchuvchisiz transport vositalarini boshqarishni biladigan mutaxassislar juda kam. Dron operatorining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- apparatni parvozga tayyorlash;
- marshrutni ishlab chiqish;
- dronning texnik holatini kuzatish;
- olingan raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash;
- hujjatlarni to'ldirish.

Dronni boshqarishga qaror qilgan insonnig mayda motorikasi yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. U analitik fikrga ega bo'lishi va tanqidiy vaziyatlarda tezkor yechim topa olishi kerak. Masalan, Rossiyada dron operatori kasbi yaqinda rasmiy maqomga ega bo'ldi. Shu bois aviatsiya sohasida ta'lim olgan shaxslarga qayta tayyorlash kurslarida qatnashish taklif etiladi. Bu sohada mutaxassis bo'lmoqchi bo'lgan yoshlar avvalo uchuvchilar mакtabini bitirishi kerak. Qayd etish joizki, shu kasb sohibi nafaqat aniq fanlami yaxshi bilishi, balki jismoniy tayyorgarligiga ham kata e'tibor berish kerak bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan kasblardan tashqari 21-asming top-4 kasblarga kiradigan kasblardan:

- **Web-dizayner** saytning tashqi ko'rinishini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. U nafaqat badiiy mahoratga ega bo'lishi, balki turli dasturlar bilan ishlashni bilish kerak. Veb-dizaynerni ajratib turadigan asosiy fazilatlar - bu ajoyib ijodiy fikrlash va tanlagan kasbiga muhabbat.

- **Internet-kouch** mamlakatimizda faol rivojlanayotgan yana bir kasb. Kouch (murabbiy) - bu insonlarga onlayn tarzda maslahat beradigan shaxs. Hozirda mutaxassisidan talab qilinadigan yagona narsa bu o'z faoliyat sohasida haqiqiy professional bo'lishdir. Misol uchun, agar biror kishi Skype-da ingliz tilini o'rgatmoqchi bo'lsa, skaypni yaxshi bilishi kerak.

- **Event-menejer**, ya'ni bayramlar, tadbirlar tashkillashtiruvchi mutaxassis: to'ylardan tortib tor doiradagi korporativ kechalargacha.

- **Kopirayter.** Maxsus matnlarni yozish bo'yicha mutaxassis. Odamlar saytlarda kirganda ular o'qigan barcha ma'lumotlar ularning mehnatkash qalami tufayli yaratiladi.

E'tiborli shundaki, jamiyatda mashxur va ko'p talab qilinadigan kasblar bir vaqtning o'zida ko'p haq to'lanadigan kasblardir, chunki raqobat paydo bo'lishi o'z-o'zidan ish haqining oshishiga olib keladi.

Shunday qilib, mamlakatimizda yaqinda paydo bo'lgan, ammo yana ko'p yillar davomida dolzarb bo'lib qoladigan kasblar ro'yxatini taqdim etamiz:

- SMM mutaxassisi;
- Targetolog (haridorlar taklif-istagini o'rganadigan mutaxassis);
- genetik maslahatchi;
- qurilish sohasida ekoanalitik;
- Ijodiy holatlar treneri;

Hozirgi kunda aksariyat zamonaviy kasblarga o'qitish faqat qo'shimcha kurslar shaklida taklif etilmoqda. Ayni paytda eng ko'p talab qilinadigan kasblardan biri bu dasturchi va kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassisdir. Ularga bo'lgan talab, odatda, taklifdan sezilarli darajada



oshib turibdi. Bu esa aynan axborot texnologiyalari sohasining keng rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ehtimol, tez orada yana bir qator mutlaqo yangi kasblar paydo bo'ladi, ularni rivojlantirish uchun esa oliy va o'rta maxsus ta'lif bo'g'inalarida alohida yo'naliшlar yaratish kerak bo'ladi.

Hulosi qilib aytganda, mutaxassislar abituriyentlarga bir vaqtning o'zida nafaqat zamonaviy, balki muhim kasblarni ham tanlashni tavsiya qiladi. Bundan tashqari, tanlagan mutaxassisligingiz sizning mintaqangizga to'g'ri kelishi va yetarli malakaga ega bo'lsangiz, yuqori maoshli ishni osongina topishingizga kafolat bo'lishi mumkin. Shuni ham yodda tutish kerakki, zamonaviy kasblarda ta'lif sifati va amaliy ko'nikmalar birinchi o'rinda turishi kerak. Hatto eng dolzarb mutaxassislikni egallashda yetarli malakaga ega bo'lmasdan muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Shuning uchun, nufuzli universitetni tanlashga harakat qiling va qo'shimcha ta'limga maksimal vaqt ajrating.

Demak, Texnologiya darslarida o'quvchilar quyidagilarni o'rganadilar:

1. Zamonaviy texnologiyalarni jamiyat rivojlanishiga ta'sirini;
2. Individual vajamoada ishlash ko'nikmalarini;
3. Kasbiy ta'lif olish va ishga joylashish to'g'risida ma'lumot oladi
4. Tovarlar va xizmatlarning xaridorgir sifatlarini baholashni o'rganadi;
5. Mehnat mahsulotini ishlab chiqish va sotish bo'yicha faoliyatning rejasini tuzishni o'rganadi;
6. Texnologik faoliyatda ijodiy masalalarni yechish metodlarni qo'llash;
7. O'rjanilgan texnologik operatsiyalarni bajarish;
8. Bo'lajak kasbini tanlashda hohishlarini aniqlashtirish va tuzatishni o'rganish;
9. Olgan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda va kundalik hayotda qo'llash;
10. O'z amaliy ishini samaradorligini oshirish;
11. Texnologik tayyorgarlikda tanlangan yo'naliшidagi amaliy masalalarni yecha olish;
12. Ta'limi xizmatlar va kasbiy faoliyat bozorini mustaqil tahlil qila olish va h.k.

Shunday qilib, Texnologiyani o'qitishning funksional-amaliy xususiyatlari amaliy faoliyatning turli hil usullari orqali ta'minlanadi. Texnologiya darslarida ijodiy faoliyatga yondoshuv o'quvchilarda tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishga olib keladi. O'quvchilarda funksional savodxonlik shakllanadi, texnik va ijodiy fikrashi rivojlanadi, mehnat bozori sharoitida kasbiy rejaliри aniqlashtiriladi. Bundan tashqari, Texnologiya darslarida kasblar haqida tushuncha berish orqali oquvchilarga tanlagan sohasi bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тоҳиров Ў.О. Технология ўқув фани давлат таълим стандарти ва ўқув дастурини таълим амалиётига жорий этиш методикаси. // Методик тавсиянома. – Т.: РТМ, 2017.-72 б.
2. Муслимов Н., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. – Т.: "Фан ва технологиялар", 2013 й 8 б.т.
3. Шарипов Ш.С., Воробьев А.И., Муслимов Н.А., Исломова М. Касб таълими педагогикаси. - Тошкент., 2005. - 58 б.
4. Andrew Nusca, ZDNet. Top 20 most popular future jobs of 2030 Агентство стратегических инициатив, Московская школа управления «Сколково». «Атлас новых профессий». М.2020



91	Yuqori malakali futbolchi xotin-qizlarni mashg'ulotlar uchun yuklamalarni rejalashtirish.	443
	Nodirov B.H.	
92	Bolalarni mактаб та'limiga tayyorlasgda steam tizimini samaradorligi.	446
	Xolmatova S.V.	
93	Chet til darslarida hamkorlik ta'limi	451
	Shamshiddinov U.Z.	
94	Creating tasks for developing learners' critical thinking in english classes	454
	Yuldasheva D.Q.	
95	Организация изобразительной деятельности детей дошкольного возраста	458
	Худайкулова Д.З.	
96	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ salohiyatini yuksaltirishda olib boriladigan ishlar	464
	Karimova D.M., Nuraliyeva K.I.	
97	Boshlang'ich sinflarda mumtoz adabiyot o'qitishning badiiy-estetik va ilmiy-pedagogik asoslari	469
	Jo'rayeva D.	
98	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat malakalarini rivojlantirishda milliy harakatli o'yinlarning o'rni	474
	Ismoilov G'.	
99	Abituriyentlarning til ta'limidan morfemikani o'zlashtirishining besh xil metodi	476
	Isaqova G.A.	
100	An'anaviy va no'ananaviy dars mashg'ulotlari, uning afzallik va kamchiliklari	480
	Ibroximov M.A., Rustamova Z.F.	
101	CEFR ва унинг давлат таълим стандартлари билан муофиқлиги	485
	Ikromova M.D.	
102	Umumta'lim mакtabi o'quvchilarini sport to'garaklariga tanlab olish va yo'naltirish	495
	Boltabayev Sh.O.	
103	Umumta'lim mакtablarida katta tanafuslardagi o'yinlarni o'quvchilar harakat faolligini rivojlanishidagi roli	498
	Jiyanov O.M., Sultonov B.S.	
104	Umumta'lim mакtablaridagi jismoniy tarbiya darslarida milliy harakatli o'yinlarning tutgan o'rni va ahamiyati	503
	Mahmudjonov A.A., Nabijonova M.M.	
105	Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u Lug'atit Turk" asarini innavatsion texnologiyalar asosida o'rganish.	508
	Qo'chqarov B.A.	
106	Bolalarni mактаб та'limiga tayyorlashda kitob bilan ishslash malakasini rivojlantirish usullari.	513
	Ismailova N.I.	
107	Texnologiya darslarida o'quvchilarga zamонавиy kasblar haqida tushuncha berish va qiziqtitrish omillari.	517
	Muxitdinova J.R., Turg'unpulatova M.	



108	Устоз-шогирд маданиятини шакллантиришда Айкидо шарқ яккаурашининг аҳамияти Камбаров Н.С., Рахматова Х.А.	525
109	Maktabgacha yoshdagи bolalar hayotida jismoniy tarbiya vositalarining o'rni. Asqarova D.Q., Asqarov F.T.	530
110	Технология дарсларида ўқувчиларни техник фикрлаш қобилиятини шакллантириш ва ривожлантириш зарурати Мухитдинова Ж.Р.	535
111	Kitobga muhabbat uyg'otishda oilaning o'rni Xodjiyeva F.T.	539
112	Bolalar bog'chasida chet tilni o'rgatish metodikasi Nishanova T.A., Shermatjonova M.N.	542
113	Umumiy o'rta ta'lif maktablarida yuqori sinf o'quvchilariga chet tili grammatikasi o'qitishning zamonaviy usul va vositalari Mamatova D., Shamsiddinova M.	545
114	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning samarali yo'llari Jo'rayeva T.U.	548
115	An'anaviy va no'ananaviy dars mashg'ulotlari, uning afzallik va kamchiliklari Ibroximov M.A., Rustamova Z.F.	553
116	Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish. Nuriddinova D.I., Zaylobiddinova M. A.	557
117	Kitobxonlikka qiziqishni tarbiyalash orqali o'quvchilarda shaxslararo madaniyatni shakllantirish Zaylobiddinova M. A., Nuriddinova D.I.	562
118	O'quvchilarda kreativ salohiyatni shakllantirishning individual-psixologik xususiyatlari Ibrohimova N.I., Nuraliyeva K.I.	567
119	Fan-tehnika taraqqiyoti davrida yoshlar tarbiyasining dolzarb muammolari. Mirqosimova M.	572
120	Халқ ўйинларининг таълим – тарбия жараёнидаги педагогик омиллари Эгамбердиева Т.А., Йўлдошев С.В.	575
121	Oliy ta'lif muassasalari talabalarini sog'lom turmushga tayyorlashda jismoniy tarbiya va sportning o'rni Mahmudov N.N.	580
122	The role of motivation in teaching English to young learners Akbarova R., Baxriddinov A.	584
123	Chet ta'lifida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari Kukiboyeva M.	589
124	Ingliz tilini o'rganish jarayonida tanqidiy fikrлаsh madaniyatini shakllantirish omillari Tuychiev A.T.	592